

**VAQF QASHSHOQLIKNI QISQARTIRISHDAGI ASOSIY
INSTRUMENTLARDAN BIRI SIFATIDA: INDONEZIYA TAJRIBASI****Maxmudova Aziza Fayzulla qizi***O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola Indoneziyada vaqf institutining qashshoqlikni kamaytirishdagi rolini tahlil qiladi va uning tajribasini o'rganadi. Islomiy moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan vaqf tarixan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Tadqiqotda vaqfning iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasi tahlil qilinib, uning ta'lim, sog'liqni saqlash va mikromoliyalashtirish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Biroq, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, vaqf tizimining samaradorligiga ma'muriy muammolar, professional menejment yetishmovchiligi va jamoatchilik ishonchining pastligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, agar vaqf instituti to'g'ri rivojlantirilsa, u qashshoqlikni kamaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim vositaga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, u islomiy tamoyillar asosida o'zining asl mohiyatini saqlab qolishi zarur.

Tayanch so'z va iboralar: *Vaqf, iqtisodiy rivojlanish, qashshoqlikni kamaytirish, raqamli vaqf, Indoneziya.*

Abstract. This article analyzes the role of the Waqf institution in poverty alleviation in Indonesia and examines its implementation. As a key component of the Islamic financial system, Waqf has historically served as a fundamental source of socio-economic development. The study evaluates the contribution of Waqf to economic growth and explores its approaches to ensuring social stability through education, healthcare, and microfinance. However, the research highlights that administrative challenges, a lack of professional management, and low public trust negatively impact the effectiveness of the Waqf system. The findings suggest that if the Waqf institution is properly developed, it could become a vital instrument for poverty reduction and sustainable development. At the same time, it is essential to preserve its authentic Islamic principles.

Keywords: *Waqf, economic development, poverty alleviation, digital Waqf, Indonesia.*

Kirish

Islom inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi mukammal din hisoblanadi. Jumladan islom ijtimoiy moliyasi islom paydo bo'lishida jamiyatdagi boylikni muvozanatlash va iqtisodiy ekspluatatsiyani to'xtatish uchun ishlab chiqilgan. Islomiy moliya boylikni qayta taqsimlash va adolatli moliyaviy bitimlar orqali ijtimoiy adolatni yaxshilashga qaratilgan. Islomiy moliya bir xilda tijorat va ijtimoiy o'lchovlarga

asoslangan. Islom ijtimoiy moliya sektori quyidagilarga asoslangan islom institutlarini o'z ichiga oladi: zakot (majburiy sadaqa), sadaqa (ixtiyoriy xayriya), qard hassan (foizsiz kreditlar) va vaqf (vaqf) kabi xayriya ishlari.

Bugun biz islom moliya mahsuloti bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan mahsulot vaqf haqida to'liqroq tanishamiz. «Vaqf» so'zi lug'atda «to'xtatish», «tutib qolish» ma'nosini anglatadi. Shariatda esa molning aslini ushlab turib, foydasini Allohga qurbat (yaqinlik) hosil qilish uchun sarflashga aytiladi. Vaqf qilingan narsadan keladigan foyda vaqf qiluvchi belgilagan/ko'rsatgan shar'iy maqsad uchun sarf qilinadi va savobi vaqf qiluvchiga bo'ladi. Vaqf qilingan narsa sotilmaydi, hadya qilinmaydi, meros qoldirilmaydi.

Quyidagi oyati karima vaqfning shariatda joriy qilinishiga dalolat qiladi: “Ey, imon keltirganlar! Kasb qilgan narsalaringizdan va Biz sizlarga yerdan chiqarib bergan narsalarimizdan sadaqa (ehson) qilinglar!” (“Baqara” surasi, 267-oyat)¹.

Vaqfga alaqador eng mashhur hadislardan biriga Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qilgan quyidagi hadis misol bo'la oladi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Odam bolasi vafot etganda, uning amallari kesiladi. Faqat uch narsadan: sadaqai joriya (vaqf), manfaatlanadigan ilm va uning haqqiga duo qilib turuvchi solih farzanddan kesilmaydi», dedilar». Beshovlaridan faqat Imom Buxoriy rivoyat qilmagan².

Islomda vaqfning asosiy maqsadi qashshoqlikni bartaraf etish va musulmon ummatining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashdir. Tarixga nazar tashlasak, vaqf islom tarixining dastlabki bosqichlaridan tortib, XIX asrning boshlariga qadar muhim rol o'ynagan. Musulmon kishi ko'pchilik foyda oladigan bir ish qilib ketgan bo'ladi, ana shundan kishilar foyda olib tursalar, o'lganidan keyin ham uning egasiga savob yetib turadi. Shuning uchun ham musulmonlar islom ta'limotlarini yaxshi tushunib, ularga amal qilgan paytlarida bardavom savobdan umidvor bo'lib ko'plab vaqflar qilganlar va beva-bechora, faqir-kambag'allarni ana shu vaqflar hisobidan ta'minlab turganlar³.

Islomiy qashshoqlikni kamaytirish yondashuvi quyidagicha bo'linadi:

- ✓ Ijoiy chora-tadbirlar – daromadlarni oshirish, adolatli taqsimlash
- ✓ Oldini olish choralari – mulkni haddan tashqari jamg'arishni oldini olish
- ✓ Tuzatish choralari – zakot, sadaqa va vaqf orqali kambag'allarga yordam berish.

Vaqf masjidlar, madrasalar, ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mehmonxonalar va boshqa jamoat binolarini qurishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Uning

¹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “Qur'on Karim va uning o'zbek tilidagi ma'nolar”i

² www.islommoliyasi.uz

³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “Hadis va hayot” 11-juz

foydalari faqat musulmon jamiyati bilan cheklanib qolmay, balki din, madaniyat va irqiy tafovutlarni hisobga olmasdan barcha odamlarga xizmat qilgan.

Islom tarixida birinchi vaqf Madina shahridagi Qubo masjidi hisoblanadi. U 622 yilda Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan qurilgan. Vaqf tushunchasining rivojlanishi ham aynan Madinada boshlangan. Masalan, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) odamlarni Ruma qudug'ini sotib olib, uni jamoat uchun bepul foydalanishga bag'ishlashga chaqirgan. Keyinchalik, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) xalifa Umar ibn Xattobga Xaybarda o'z yerini vaqf sifatida bag'ishlashni maslahat bergan⁴. Bu esa xayriya faoliyatini shaxsiy ehsondan jamiyat miqyosidagi muhim institutga aylantirgan.

Adabiyotlar sharhi

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan islom moliya mahsulotlari ko'plab olimlar, tadqiqotchilar va tashkilotlar tomonidan chuqur o'rganilgan va muhim xulosalar keltirilgan. Jumladan, Muhammad, M. T. S. H. va A. H. Mar Imanlar barqaror qashshoqlikni bartaraf etish strategiyasi sifatida vaqf tamoyillarini tadbirkorlikni rivojlantirish bilan birlashtiradigan nazariy asosni ishlab chiqishgan⁵. Ular vaqfga an'anaviy xayriya yondashuvlari qashshoqlikni barqaror qisqartirish o'rniga ko'pincha qaramlikni keltirib chiqaradi, tadbirkorlik vaqfi modellari esa qashshoqlikni qisqartirishga yordam beradi degan xulosaga kelishgan.

S.Hasan, va M.Rabboniy o'zlarning empirik tadqiqotlarida vaqfga asoslangan islom mikromoliyalash dasturlarining barqarorligi va samaradorligini, xususan, ularning an'anaviy mikromoliyadan tashqarida bo'lgan o'ta kambag'al aholi qatlamlarini qamrab olish qobiliyatini baholashga qaratganlar⁶. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, vaqfga asoslangan mikromoliyalash odatda an'anaviy mikromoliyaviy dasturlardan tashqarida bo'lgan aholini samarali qamrab olishi mumkin. Biroq, mualliflarning ta'kidlashicha, barqarorlik uchun yetarli boshlang'ich kapitallashuv, professional boshqaruv va tegishli me'yoriy bazalar muhim ahamiyatga ega.

Noordin, N. H., Xaron, S. N. va S.Kassimlarning tadqiqotlari Malayziyadagi Vaqaf An-Nur Corporation Berhad (VANCorp) ning batafsil misolini o'rganish orqali qashshoqlikni bartaraf etish uchun naqd pul vaqfini amalga oshirishda muhim muvaffaqiyat omillarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot qashshoqlikni bartaraf etish bo'yicha aniq maqsadlarga ega bo'lgan samarali naqd pul vaqf institutlarini tashkil etish bo'yicha batafsil yo'l xaritasini taqdim etadi. Mualliflarning takidla'shicha, Malayziyaning qo'llab-quvvatlovchi tartibga solish, professional boshqaruv va korporativ hamkorlikni birlashtirgan integratsiyalashgan yondashuvi zamonaviy

⁴ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Hadis va hayot" 11-juz

⁵ Muhammad, M. T. S. H. va Mar Iman, A. H. (2020). "Vaqf tadbirkorlik uchun asos sifatida". Islom va Yaqin Sharq moliyasi va boshqaruvi xalqaro jurnali, 13(3), 455-472.

⁶ Hasan, S. va Rabboniy, M. (2019). "Islom mikromoliyaviy vaqfi barqarormi? Bangladeshdagi empirik tadqiqot." Islomiy hisob va biznes tadqiqotlari jurnali, 10(3), 357-372.

ijtimoiy muammolar uchun vaqfni jonlantirishga intilayotgan boshqa yurisdiksiyalar uchun qimmatli saboqlar beradi⁷.

Ahmad, U. va Faosiy A. Ogunbadolarning tadqiqotari yangi paydo bo'lgan raqamli vaqf platformalarini o'rganish va shaffoflik, qulaylik va operatsion samaradorlikni oshirish orqali qashshoqlikni bartaraf etishda vaqf samaradorligini oshirish imkoniyatlarini baholashdan iborat edi. Tadqiqot vaqf muassasalariga raqamli transformatsiya bo'yicha yo'l xaritasini taqdim etib, imkoniyatlarni ham, mumkin bo'lgan tuzoqlarni ham aniqlaydi. Mualliflarning ta'kidlashicha, texnologiyaga vaqf tamoyillari va qashshoqlikdan xalos bo'lish strategiyalari o'rnini bosuvchi emas, balki uni faollashtiruvchi vosita sifatida qarash kerak⁸.

Shayx, S. A., Ismoil, A. G. va Mohd Shafiai, M. H. qiyosiy tadqiqotlarida vaqf muassasalarining qashshoqlikka qarshi kurashdagi bir-birini to'ldiruvchi rolini baholab, musulmonlar ko'p bo'lgan uchta davlatda (Indoneziya, Turkiya va Pokiston) rasmiy ijtimoiy himoya tizimlariga qanday integratsiyalashganligini tahlil qilishni maqsad qilishgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, vaqf institutlari tegishli muvofiqlashtirish mexanizmlari mavjud bo'lganda davlat ijtimoiy himoya tizimini samarali ravishda to'ldirishi mumkin. Mualliflar ushbu bir-birini to'ldirishni kuchaytirish uchun maxsus siyosat tadbirlarini tavsiya qiladilar, jumladan huquqiy tan olish, muvofiqlashtirilgan maqsadli tizimlar va qo'shma monitoring tizimlari⁹.

Ibrohim, H., Nor, E., & Muhammad, J. tadqiqotlari vaqfning qashshoqlikni kamaytirishdagi samaradorligini baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan, tegishli o'lchov vositalaridagi muhim bo'shliqni bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan keng qamrovli baholash tizimini ishlab chiqish va tasdiqlashdan iborat edi. Tadqiqot vaqf ma'murlarni kambag'allikni kamaytirish tashabbuslarini baholash va yaxshilash uchun amaliy vosita bilan ta'minlaydi. Mualliflarning ta'kidlashicha, samarali o'lchov nafaqat javobgarlik, balki o'rganish va moslashish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ular turli baholash imkoniyatlariga ega bo'lgan tashkilotlar uchun amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar beradi¹⁰.

Zuki, M. S. M., Rahman, A. A. va A. Hasan qiyosiy tahlillarida beshta yurisdiksiyada (Malayziya, Indoneziya, Turkiya, Quvayt va Singapur) vaqf institutlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani o'rganish, vaqfning kambag'allikni bartaraf etishdagi samaradorligini oshiradigan yoki to'sqinlik qiluvchi

⁷ Noordin, N. H., Xaron, S. N. va Kassim, S. (2021). "Ijtimoiy moliya uchun naqd pul vaqfi: Malayziyada muvaffaqiyatli amalga oshirish misoli." *Islom valyuta iqtisodiyoti va moliyasi jurnali*, 7(2), 367-390.

⁸ Ahmad, U. va Faosiy Ogunbado, A. (2022). "Qashshoqlikni barqaror qisqartirish uchun raqamli vaqf: muammolar va imkoniyatlar". *Islom iqtisodiyoti va moliyasi tadqiqotlari xalqaro jurnali*, 8(1), 41-63.

⁹ Shayx, S. A., Ismoil, A. G. va Mohd Shafiai, M. H. (2023). "Vaqqga asoslangan ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari: aksariyat musulmonlar yashaydigan uchta mamlakatdan olingan dalillar". *Thunderbird International Business Review*, 65(2), 167-182.

¹⁰ Ibrohim, H., Nor, E., & Muhammad, J. (2020). "Qashshoqlikni kamaytirishda vaqf samaradorligini o'lchash: baholash tizimini ishlab chiqish va tasdiqlash". *Islom iqtisodiyoti, bank ishi va moliyasi jurnali*, 16(3), 43-67.

qoidalarni aniqlashdan iborat edi. Tadqiqot huquqiy sharoitlar vaqfning qashshoqlikdan xalos bo'lish salohiyatini qanday qo'llab-quvvatlashi yoki cheklashini baholash uchun asos bo'ladigan "Vaqf uchun tartibga solish samaradorligi indeksini" ishlab chiqadi. Ushbu indeks huquqiy tan olish, institutsional avtonomiya, javobgarlik mexanizmlari, moliyaviy moslashuvchanlik va benefitsiarlarni himoya qilish o'lchovlarini o'z ichiga oladi¹¹.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada vaqfning bugungi kundagi holati, kelajakdagi imkoniyatlari, boshqa musulmon davlatlardagi holat (Indoneziya misolda) hamda O'zbekiston uchun olinishi kerak bo'lgan saboqlar tahlil qilinadi. Maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun hozirgi vaqtda mavjud ilmiy adabiyotlar, oldingi nashrlar, ilmiy maqolalar, turli tashkilotlarning veb-saytlari va boshqa tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar asosida tadqiqot olib borilgan. Bundan tashqari, maqola sifat jihatidan ilmiy tadqiqotlarga asoslangan bo'lib, tahlillarni amalga oshirishda guruhlash, taqqoslash, tasviriy statistik tahlillar, qiyosiy tahlillar va kuzatuv usullaridan foydalanilgan. Shuningdek maqolada mavzu doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, ilmiy ishlar va maqolalar tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar

Vaqf qadim davrlardan beri musulmon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan, chunki vaqf tizimi mamlakat moliya manbalarini shakllantirishga hissa qo'shgan.

Vaqf mulklari xususiy mulkchilik shaklidan chiqadi. Shu bilan birga, davlatga ham tegishli hisoblanmaydi. Vaqflarni jamiyatning ma'lum ehtiyojlarini qondiradigan jamoa mulki deyish mumkin.

Vaqf, kutubxonalar, maktab-madrasalar, oliy ta'lim muassasalari, shifoxonalar, yetimxonalar, musofirxonalar, infratuzilma inshootlari qurish (yo'llar, ko'priklar, quduqlar v.h.k.z) va boshqa shu kabi loyihalarni o'z ichiga oladi.

Vaqfning sog'liqni saqlash va ta'lim sohasi rivojiga qo'shgan hissasi mamlakat fuqarolari uchun imkon qadar teng imkoniyatlar yaratishga yordam beradi, teng imkoniyatlar esa ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Indoneziya Statistika Agentligi tomonidan 2020 yil oxirida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatdagi qashshoqlik darajasi 2019 yil sentabr oyidagi 9,22% dan 2020 yil mart oyida 9,78% gacha oshgan. Hozirgi qashshoqlik muammosini hal qilish uchun jamiyat farovonligini oshiradigan xayriya tizimini rivojlantirish zarur (Vadi va Nurzaman, 2020).

¹¹ Zuki, M. S. M., Rahman, A. A. va Hasan, A. (2021). "Qashshoqlikni bartaraf etishda vaqfning me'yoriy-huquqiy asoslari: beshta yurisdiksiyaning qiyosiy tahlili". Islom iqtisodiyoti tadqiqotlari, 29(1), 1-23.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ijtimoiy xizmatlar sohasiga ham kirib kelmoqda. Ijtimoiy hayotimizda turli raqamli platformalar xayriya yig'imlarini tashkil qilish uchun ishlatilmoqda (Razak, 2020), jumladan vaqf sohasida ham. Biroq, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, yiliga 77 trillion rupiya jamg'arilishi mumkin bo'lgan vaqf mablag'laridan atigi 225 milliard rupiya yig'ilmoqda (Nursalikhah, 2019). Bu katta farq "ogohlantiruvchi signal" bo'lib, vaqf mablag'larini samarali yig'ish va jamiyat farovonligiga hissa qo'shish uchun raqamli texnologiyalarni keng miqyosda joriy qilish zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi besh yil ichida Indoneziyada axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan (ICT) foydalanish jadal rivojlanmoqda. Uy xo'jaliklari tomonidan mobil telefonlardan foydalanish darajasi doimiy ravishda oshib, 2019-yilga kelib 63,53% ga yetdi. Kompyuter egalik qilish darajasi 18,78%, uy xo'jaliklarining internetga kirish darajasi esa 73,75% ga yetdi. Internetdan foydalanish 2015-2019 yillar oralig'ida sezilarli darajada oshdi, 2015-yilda 21,98% bo'lgan bo'lsa, 2019-yilga kelib 47,69% ga yetgan.

Bu ko'rsatkichlar Indoneziyada raqamli vaqfni rivojlantirish uchun qulay sharoit mavjudligini va internet hamda texnologiyalarning vaqf sohasiga integratsiyalashuvining muhimligini ko'rsatadi.

2020 yil mart oyida qashshoqlik darajasi 9,78% ni tashkil etdi, bu 2019 yil sentabr oyiga nisbatan 0,56% ga va 2019 yil mart oyiga nisbatan 0,37% ga oshgan. 2020 yil mart oyida qashshoqlikda yashovchi insonlar soni 26,42 million kishiga yetdi, bu 2019 yil sentabr oyiga nisbatan 1,63 millionga va 2019 yil mart oyiga nisbatan 1,28 million kishiga oshgan¹².


Indoneziya hukumati qashshoqlikni tezkor ravishda kamaytirish uchun ancha uyg'unlashgan, integratsiyalashgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan strategiya ishlab chiqdi. 2015-2019 yillar oralig'ida hukumat ushbu strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirib, qashshoqlik darajasini 10% dan pastga – 9,22% gacha kamaytirishga erishdi.

Jahon banki tomonidan qabul qilingan xalqaro qashshoqlik standartlariga ko'ra, Indoneziyada hozirda 9,9 million kishi (aholining 3,371%) o'ta qashshoqlik sharoitida yashamoqda¹³.

¹² Ahmad Fanani, Ardhika Wahyu Kuncoro, Ahmad bin Muhammad Husni, Elina Adi Wijayanti "The Contribution of Waqf on Poverty Alleviation through Digital Platforms: A Case of Indonesia" Shirkah: Journal of Economics and Business Vol. 6, No. 2 (2021), page 246-261

¹³ <https://www.worldbank.org>

Indoneziyada vaqfdan foydalanish

**1-rasm: Vaqfdan foydalaniladigan sohalar**

Indoneziya vaqf sohasi uchun ulkan salohiyatga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, Indoneziya jahon xayriya indeksi (World Giving Index) bo'yicha dunyodagi eng saxovatli davlat deb tan olingan.

Mamlakat bo'ylab vaqf yerlari 52,126 gektar maydonni egallab, 384,027 ta nuqtada tarqalgan. Shuningdek, naqd vaqfning yillik salohiyati 180 trillion rupiyaga teng ekani taxmin qilinmoqda (Svastika & El Maza, 2019).

Indoneziya Respublikasi Din ishlari vazirligining Vaqf va Zakotni rivojlantirish bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, Vaqfning Katta Rivojlanish Dasturi (Grand Design of Vaqf) uchun 4 ta asosiy reja belgilangan:

- ❖ Vaqf ekotizimini mustahkamlash
- ❖ Vaqf harakati va targ'ibot kampaniyalarini kengaytirish
- ❖ Vaqf institutlarining integratsiyasini kuchaytirish
- ❖ Nazhir (vaqf boshqaruvchilari) malakasini oshirish


Indoneziyada vaqf mulklarini boshqaradigan uch turdagi nazir (vaqf boshqaruvchilari) faoliyat yuritadi:

1. Individual Nazir - odatda mahalliy jamoa yetakchilari yoki diniy arboblardan bo'lib, mahalliy vaqf aktivlarini boshqaradi.
2. Tashkilot Naziri - diniy tashkilotlar tomonidan boshqariladi.
3. Yuridik shaxs Naziri - maxsus vaqf boshqaruv institutlari bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda ishlaydi:

- Naqd vaqf institutlari (masalan, Global Vakaf Foundation)
- Korporativ vaqf tashkilotlari (masalan, Tabung Vakaf Indonesia)
- Universitetga asoslangan vaqf jamg'armalari (masalan, UII Vaqf Board –

Indoneziya Islom Universiteti Vaqf Kengashi)

Bu uch toifa vaqf boshqaruvchilari Indoneziyada vaqfning samarali boshqarilishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.



Naqd vaqf 2004-yildan rasmiy e'tirof etilgandan beri sezilarli o'sish ko'rsatdi: 2022-yilda jami yig'ilgan naqd vaqf mablag'lari: 819 milliard IDR (taxminan 53 million AQSh dollari). Yillik o'sish sur'ati: 15-20%. Naqd vaqf aktivlarining asosiy kanallari quyidagilar (2-rasm). Garchi naqd vaqf yig'implari yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsa-da, u hali ham o'zining to'liq salohiyatiga erisha olmagan. Yillik taxminiy potensial 180 trillion IDR bo'lsa-da, hozirda yig'ilayotgan mablag'lar ushbu summadan ancha pastligicha qolmoqda.

Vaqf yerlari aktivlarining taxminiy umumiy qiymati 2,000 trillion Indoneziya rupiyasidan (taxminan 130 milliard AQSh dollaridan) oshadi, bu esa katta iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Indoneziyadagi Innovatsion Vaqf Modellar

❖ Naqd Vaqf bilan bog'liq Sukuk (CVLS - Cash Vaqf-Linked Sukuk)

2020-yilda ishga tushirilgan ushbu innovatsion moliyaviy vosita quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ✓ Kam miqdordagi vaqf badallarini qabul qilish (minimum 1 million IDR)
- ✓ Vaqf mablag'lariga asoslangan davlat sukuklarini chiqarish
- ✓ Sukukdan tushgan daromadlarni ijtimoiy loyihalarga yo'naltirish
- ✓ Asosiy kapital (vaqf mablag'lari) doimiy vaqf sifatida saqlab qolish

❖ Raqamli Vaqf Platformalari. Texnologiyaning rivojlanishi vaqf yig'implarini sezilarli darajada oshirishga yordam berdi:

Mobil ilovalar: LinkAja Syariah, ALAMI Vaqf

To'lov shlyuzlari: Kitavakaf.com

Blokcheyn asosidagi vaqf platformalari: HARA Vaqf Chain

2020-2023 yillarda ushbu platformalarning foydalanuvchilari soni 300-400% ga oshdi, bu esa vaqfga kirishni soddalashtirdi va jamoatchilik ishtirokini oshirdi.

❖ Mikro-moliyalashtirishga asoslangan Vaqf Modellar. Kichik biznes egalariga va tadbirkorlarga vaqf asosida moliyaviy yordam berish dasturlari: Bank Vakaf Mikro (BVM) Indoneziyada 60 dan ortiq filiallar faoliyat yuritmoqda. Foizsiz moliyalashtirish imkoniyatini bermoqda.

▪ Baitul Maal vat Tamvil (BMT) vaqf dasturlari

▪ Ishlab chiqarish aktivlarining vaqfi – Uskuna va biznes ta'limi bilan ta'minlash

❖ Universitet Vaqf Fondlari

Indoneziyaning yetakchi universitetlarida vaqf asosida rivojlanayotgan endowment jamg'armalari:

Universitas Islam Indonesia (UII) – 200 milliard IDR (taxminan 13 million AQSh dollari) endowment fondi

Universitas Darussalam Gontor – O'zini-o'zi moliyalashtiruvchi kampus tizimi

University of Airlangga Vaqf Center – Ilmiy tadqiqot va jamoat rivojlanishi dasturlari.

28 000 dan ortiq ta'lim muassasalari vaqf mablag'lari hisobidan qisman yoki to'liq qo'llab-quvvatlanadi. Har yili taxminan 42 000 talabaga grant va stipendiyalar ajratiladi. Islomiy universitetlarda tadqiqot endowment fondlari yaratilgan. Kam ta'minlangan jamoalar uchun kasb-hunar o'rgatish dasturlari mavjud.

Indoneziyada vaqfning qashshoqlikni kamaytirishga qo'shgan hissasi turli natijalarni ko'rsatmoqda:

✓ Bevosita benefisiarlar: Tadqiqotlar har yili taxminan 7,3 million indoneziyalik vaqf dasturlaridan manfaat ko'rayotganini ko'rsatmoqda.

✓ Ish o'rinlari yaratish: Ishlab chiqarish bilan bog'liq vaqf loyihalari natijasida 14000 ta to'g'ridan-to'g'ri ish o'ri yaratilgan.

✓ Mikromoliyalashtirish imkoniyati: Bank Vakaf Mikro hozirda 27 000 nafar faol qarz oluvchilarga xizmat ko'rsatmoqda va ularning 98% qarzni o'z vaqtida qaytarish ko'rsatkichiga ega.

✓ Hududiy tafovut: Vaqf dasturlarining 68% qismi Java orolida to'plangan bo'lib, Sharqiy Indoneziyada kam ta'sir ko'rsatilmoqda.

Kasri va Ahmed (2019) tadqiqotlariga ko'ra, vaqfdan foyda oluvchilar daromadlarini 11-16% ga oshirishga erishgan. Loyihalarning barqarorligi dastur turiga bog'liq bo'lib, har xil natijalarni ko'rsatmoqda.

Vaqf asosidagi sog'liqni saqlash muassasalari: 217 ta sog'liqni saqlash markazi (shifoxonalar, klinikalar, tibbiyot markazlari), qishloq va chekka hududlarda mobil tibbiy xizmatlar, maxsus davolash muassasalari (ko'z shifoxonalari, onalar va bolalar

uchun tibbiyot markazlari), har yili 3,4 million bemorga vaqf mablag'lari orqali tibbiy xizmat ko'rsatiladi.

Indoneziyaning vaqf tizimida yutuqlar bilan bir qatorda kamchilik va to'siqlar ham bor. Jumladan, yer vaqfini sertifikatlash muddati juda uzun (8-14 oy davom etadi), tartibga solish tizimi markazlashmagan (BVI va Din ishlari vazirligi o'rtasida koordinatsiya sust), vaqf aktivlari to'liq ro'yxatdan o'tkazilmagan (36,3% vaqf yerlarining sertifikati yo'q), raqamli vaqf ma'lumotlar bazasi yetarlicha rivojlanmagan, professional menejment yetishmovchiligi, an'anaviy nazirlarning 73%i moliyaviy savodxonlik bo'yicha rasmiy ta'lim olmagan, ishlab chiqarish va sarmoyaviy aktivlar bo'yicha yetarli tajribaga ega emaslar, hisobot va javobgarlik tizimlari zaif, ko'pgina vaqf tashkilotlari ko'ngillilar asosida ishlaydi, bu esa samaradorlikni pasaytiradi.

Sisvantoro va boshq. (2018) tadqiqotiga ko'ra:

- 47% odamlar vaqf mablag'larining noto'g'ri boshqarilishidan xavotirda.
- 38% odamlar vaqfni tashkilotlar orqali emas, balki bevosita xayriya qilishni afzal ko'radi.
- 62% respondentlar vaqfni faqat yer bilan bog'liq deb hisoblaydi, naqd yoki harakatlanuvchi aktivlar vaqfi haqida tushuncha kam.
- Vaqf aktivlari yetarlicha daromad keltirmayapti:
- Yer vaqflarining 77% i faqat diniy maqsadlar uchun ishlatilmoqda, ishlab chiqarish va iqtisodiy foyda kam.
- Naqd vaqf bo'yicha sarmoya daromadlari atigi 4-6% ni tashkil qiladi, bu esa tijorat bozori darajasidan past.
- Vaqf loyihalarining kichik ko'lamda amalga oshirilishi samaradorlikni pasaytiradi.

Xulosa

Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, (2016) dunyoda 767 million kishi xalqaro standartlarda belgilangan – kuniga \$1,9 miqdoridagi minimal darajadan kam daromad hisobiga kun ko'rmoqda. Sadaqa va o'zaro yordam esa ijtimoiy adolat va nisbiy tenglikka erishish borasidagi asosiy tushunchalardan bo'lib, Islom dinida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy adolat o'rnatish borasidagi vazifasidan kelib chiqib bu tushunchalar inson iymonining asosiy ustunlaridan hisoblanadi. Jamiyatdagi tengsizlikni (kambag'allik, nochorlik va hokazo) Islom Ijtimoiy Moliyasi (IIM) yordamida kamaytirishga erishish mumkin.

Vaqf tizimining inson va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rniga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- Vaqf ham zakot kabi boyliklar taqsimoti va ularning samaradorligi oshishiga xizmat qiladi;

➤ Sog'liqni saqlash, infratuzilma / shaharsozlik, ta'lim tizimi rivojiga kiritilgan vaqf ko'rinishidagi beminnat sarmoyalar, davlat byudjetining ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan qismining muayyan darajada o'rnini qoplaydi va shu orqali davlat xarajatlarining bir qismini o'ziga oladi (davlat byudjetidan tejab qolingan mablag'larni esa iqtisodiyotning boshqa sohalarga yo'naltirish imkoniyati paydo bo'ladi);

➤ Mamlakat infratuzilmasining yaxshilanishi iqtisodiyot o'sish sur'atlarining tezlashishiga va barqaror iqtisodiyotga erishishga yordam beradi;

➤ Mamlakat fuqarolari (va xatto boshqa yurtlardan kelgan qiyinalib qolgan musofirlar)ning davlat va yurtning badavlat kishilaridan (ularning vaqf uchun ajratgan boyliklari sababli) roziligi sabab jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va umumiy muhit yaxshilanadi;

Tabiiyki, bu ishlar tushunarli qoidalar asosidagi shaffof boshqaruv tizimi tatbiq qilinishini talab etadi. IIM vositalarining nochorlikni kamaytirish yo'lidagi ahamiyatini anglab yetish, ularni to'g'ri targ'ib qilish va hayotga tatbiq etish vaqti keldi. Indoneziyaning vaqf tizimi an'anaviy diniy ehsonlardan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida rivojlanib bormoqda. Aktivlarni optimallashtirish, professional boshqaruv va jamoatchilik ishonchi kabi muhim muammolar hanuz saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, innovatsion modellar va tartibga solish islohotlari Indoneziyani vaqf rivojlanishining global yetakchilaridan biriga aylantirish imkoniyatini yaratmoqda.

- Texnologiyalarni integratsiya qilish,
- Vaqf boshqaruvining professionalizatsiyasi,
- Milliy rivojlanish maqsadlariga moslashtirish

Yuqoridagi ko'rsatgichlar vaqfni Indoneziyaning ijtimoiy moliya tizimida tobora muhim rol o'ynovchi sektor sifatida shakllantirmoqda. Agar vaqf institutlari to'g'ri rivojlantirilsa, ular Indoneziyaning qashshoqlikni kamaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida katta hissa qo'shishi mumkin, shu bilan birga islomiy tamoyillar asosida o'zining asl mohiyatini saqlab qoladi. Qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha vaqfning ta'siri bor, lekin hali ham optimallashtirish zarur!

✓ Yer va naqd vaqfni ishlab chiqarish va investitsiya loyihalariga yo'naltirish lozim.

✓ Vaqf boshqaruvchilarining (nazhir) moliyaviy va investitsiya sohasidagi malakasini oshirish kerak.

✓ Raqamli texnologiyalarni kengroq joriy qilish va jamoatchilik ishonchini oshirish muhim.

✓ Vaqf aktivlarini daromad keltiruvchi sohalarga yo'naltirib, barqaror rivojlanishni ta'minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “Qur’on Karim va uning o’zbek tilidagi ma’nolar tarjimasi”
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “Hadis va hayot” 11-juz
3. www.islommoliyasi.uz
4. Fauzia, A. (2008). Faith and the state: A history of Islamic philanthropy in Indonesia. Brill Academic Publishers.
5. Kasri, R. A., & Ahmed, H. (2019). Assessing socio-economic development based on Maqāsid al-Sharī‘ah principles: Normative frameworks, methods and implementation in Indonesia. *Islamic Economic Studies*, 27(2), 55-77.
6. Mohsin, M. I. A. (2013). Financing through cash-waqf: A revitalization to finance different needs. *International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management*, 6(4), 304-321.
7. Nasution, M. E. (2017). Cash waqf and Islamic microfinance development in Indonesia. *Journal of Islamic Economics, Banking and Finance*, 13(1), 171-186.
8. Rusydiana, A. S., & Devi, A. (2018). Elaborating cash waqf development in Indonesia using analytic network process. *International Journal of Islamic Business and Economics*, 2(1), 1-13.
9. Siswantoro, D., Rosdiana, H., & Fathurahman, H. (2018). Reconstructing accountability of the cash waqf (endowment) institution in Indonesia. *Managerial Finance*, 44(5), 624-644.
10. Suhairi, & Asytuti, R. (2019). Wakaf produktif sebagai alternatif sumber pendanaan pendidikan: Studi kasus di Universitas Islam Indonesia [Productive waqf as an alternative source of educational funding: A case study at the Islamic University of Indonesia]. *Jurnal Al-Iqtishad*, 11(2), 227-246.
11. www.worldbank.org
12. Ahmad Fanani, Ardhika Wahyu Kuncoro, Ahmad bin Muhammad Husni, Elina Adi Wijayanti “The Contribution of Waqf on Poverty Alleviation through Digital Platforms: A Case of Indonesia” *Shirkah: Journal of Economics and Business* Vol. 6, No. 2 (2021), page 246-261
13. Jazil, T., Rofifah, S., & Nursyamsiah, T. (2019). Determinant factors motivated Waqif to donate waqf. *El-Barka: Journal of Islamic Economic and Business*, 2(2), 162-190.